

UO'K: 811.112.2'374.822

KBK: 81.2Nem-4

K 25

K 25 Yusuf, Ismoilov.

Nemischa – o'zbekcha, o'zbekcha – nemischa lug'at [Matn] / Y.Ismoilov, Sh.Karimov. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 768 b.

ISBN 978-9943-4908-8-8

UO'K: 811.112.2'374.822

KBK: 81.2Nem-4

Qo'lingizdagi ushbu lug'at keng qamrovli bo'lib, unda nemis va o'zbek tilidagi 50 mingga yaqin so'z va iboralar keltirilgan. Ham nemischa – o'zbekcha, ham o'zbekcha – nemischa lug'atning bir kitobga jamlanishi foydalanuvchilar uchun qulaylik tug'diradi. Undan umumta'lif maktab o'quvchilari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari talabalari, tarjimonlar va nemis tilini mustaqil o'rghanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Lutfullo Xohiyorov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yanglish Egamova,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-4908-8-8

© Y.Ismoilov, Sh.Karimov

«Nemischa – o'zbekcha, o'zbekcha – nemischa lug'at»

© «Akademnashr», 2023

SO'ZBOSHI

Mazkur “Nemischa – o‘zbekcha, O‘zbekcha – nemischa” lug‘ati o‘zbek leksikografiyasida ilk marta yaxlit ravishdagi bir lug‘atda ifodalangan holda tuzilgan. Shu paytgacha mavjud alohida “Nemischa – o‘zbekcha” va “O‘zbekcha – nemischa” lug‘atlar miqdor jihatdan kam sonli va tildagi o‘zgarishlarni talqin qilishga ulgurmaganliklari sababli zamon talablaridan orqada qolib kelmoqdalar. Ushbu lug‘at 50 000 ga yaqin nemis va o‘zbek tillaridagi dolzarb va faol iste’moldagi so‘z va iboralarini qamrab olgan bo‘lib, u keng foydalanuvchilar, xususan, umumta’lim maktab o‘quvchilari, akademik litsey, kasb - hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalari talabalar, doktorantlar, tarjimonlar va nemis tilini mustaqil o‘rganuvchi keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, unda ijtimoiy hayotning ilm – fan, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, madaniyat va sport kabi qator sohalarida keng qo‘llanilgan sohaga oid so‘zlar ham aks ettirilgan. Lug‘atda og‘zaki so‘zlashuv tilining keng qamrovli namunalari turli til birliklari va mikrokontekstlar tarkibidagi turg‘un so‘z birikmalari va iboralariga ham keng o‘rin berilgan. Mamlakatshunoslik, nemis va o‘zbek xalqlarining turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq tarixiy, etnik, geografik atamalar hamda qisqartmalar esa lug‘atga chegaralangan holatda kiritilgan. Lug‘atda bosh so‘zlarning tarjimalari va ma’nolarini ochish uchun turli leksikografik vositalardan foydalanilgan. Ushbu vositalar lug‘atdan foydalanish uchun ko‘satmalarda batafsil berilgan. Eng muhim shartli qisqartmalar, geografik atamalar, nemis tilidagi kuchli va noto‘g‘ri fe’llarning asosiy shakllari, hamda nemis tilini o‘rganishga oid zaruriy qo‘sishimcha ma’lumotlar uning ilovasida berilgan.

yussuf_ismoil@mail.ru

LUG'ATDAN FOYDALANISH UCHUN KO'RSATMALAR

I. Bosh so'zlar. Bosh so'zlar lug'atda alifbo tartibida joylashtirilgan. So'z tanslashda, eng avvalo, keng muomaladagi va dolzarb so'zlarini tanlovi tamoyiliga amal qilingan. Shuningdek, mualliflar badiiy, ijtimoiy va sohaga oid matnlar tarjimasida uchraydigan, ayni paytda, iste'molda tez-tez qo'llanilib turadigan sohaga oid so'z va atamalarga yetarli ahamiyat berishgan.

Bosh so'z to'q rangli harflar bilan satr boshidan ajratib yozilgan. Bosh so'zning ma'nosini ochishga xizmat qiluvechi keng iste'moldagi ayrim erkin va turg'un so'z birikmalarini, undov so'zlar, frazeologik birliklar va maqollar ham ajratilgan holda to'q rangda, bosh so'zning o'rniiga esa to'q rangli tilda (~) belgisi qo'llanilgan, bosh so'zga tegishli grammatik belgilari, uning ma'nosini ochishga qaratilgan qo'shimcha ma'lumotlar esa kursiv, tarjimalar va ularning sinonimlari esa och rangli harflar bilan berilgan. Masalan:

Lampe *f; -; -n;* chiroq; **eine** ~ **anzünden** chiroqni yoqmoq, **eine** ~ **ausschalten** chiroqni o'chirmoq.

asramoq 1. (*saglamoq*) bewahren vt; **ko'z qorachig'iday** ~ wie sein Augapfel bewahren; 2. (*bola asrab olmoq*) adoptieren;

Bosh so'zlarning tarjimalarini bir yoki ma'no jihatidan bir - biriga yaqin turgan bir necha sinonimlar bilan berilgan. Birinchi o'rindagi tarjima so'zi, odatda, bosh so'zning eng yaqin tarjimasi, qolgan sinonimlar esa bosh so'z tarjimasini yanada to'ldirishga xizmat qiladi. Masalan:

Narbe *f; -; -n;* chandiq, yara izi, yara o'rni, dog'.

bino Gebäude n, Bau m, Bauwerk n,

Omonim so'zlar mustaqil lug'at maqolasi sifatida berilgan va bir - biridan rim raqami bilan farqlanadi. Masalan:

Tor I. *n; -(e)s; -e;* 1. darvoza 2. *Sport. gol*

Tor II. *m; -en; -en;* tentak odam

dasta I. (*bo'lak*) Bündel *n;* Büschel *n;* Bund *n;* Stoß *m;* Häufchen *n;*

dasta II. (*tutqich*) Griff *m;* Steil *m;* Hebel *m;*

dasta III. (*guruuh*) Sängergruppe *f;* Folkloreengruppe *f;*

Ko'p ma'noli bosh so'zning ma'nolari bir-biridan arab raqami bilan ajratilgan. Eng dolzarb va ko'p qo'llaniladigan ma'no birinchi o'rinda, ayrim holatlarda esa ko'p ma'nolar tarkibida yanada qo'shimcha ma'noga ega so'zlar qavslari arab raqami bilan berilgan. Masalan:

Beutel *m; -s; -;* 1. qop, qanor, to'rva, xalta; 2. hamyon, karmon

qimmatli 1. Wertvoll, kostbar; ~ **qog'oz** Wertpapier *n;* 2. (aziz) ~ **do'st** ein teurer Freund

Bosh so'zlar mustaqil qo'llanmay, ma'lum so'z birikmalarini tarkibida ishlataladi-gan xoлатларда bosh so'zdan so'ng qo'sh nuqta qo'yilib, so'z birikmalarini to'liq yoziladi va tarjimasi yoki ekvivalenti keltiriladi. Masalan:

imstande: *Adv.* ~ **sein** qodir bo'lmoq.

baham: ~ **ko‘rmoq** sich teilen

II. Talaffuz. Bosh so‘z va uning talaffuzi bilan bog‘liq fonetik xususiyatlar “Nemischa – o‘zbekcha lug‘at”ga tegishli holatda bosh so‘z talaffuzi asosan nemis tiliga chet tillaridan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarda transkripsiya shaklida berilgan. Transkripsiya barcha o‘zlashmalarda emas, yozuv va talaffuz o‘rtasida keskin farqli o‘zlashmalarda qo‘llanilgan. Masalan:

Restaurant [*resto’ra:*] *n; -s; -s;* restoran.

imkoniyat Chance *f; (sch’angβ(e))*

Bosh so‘z urg‘usida qoidadan istisno hollarda urg‘uli bo‘g‘in oldidagi maxsus belgi () bilan ajratilgan. Ushbu belgi o‘zlashma so‘zlarga, ayrim so‘zlarining ko‘plik shakliga, - belgisi esa urg‘uli bo‘g‘inga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan:

Chaos (*ka’os*) *n; -; -*; o‘ta tartibsizlik, chalkashlik.

Medaille (-*dalje*) *f; -; -n;*

überlesen *vt.* ko‘z yogurtirib o‘qib chiqmoq.

überlesen *vt.* (o‘qishda) e’tibordan chetda qoldirmoq.

III. Grammatika. Grammatik belgilari asosan morfologik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. So‘z turkumlarini aksariyat hollarda bosh so‘zdan bevosita keyin turgan leksikografik belgilari, xususan, tegishli qisqartmalar orqali aniqlanish mumkin. Masalan:

Adj. – Adjektiv (sifat): **gefährlos** *Adj.* bexatar, bexavotir.

Part. – Partizip (sifatdosh): **abgefahren** *I. Part. II.* jo‘nab ketgan. **II. Part. II** *Adj.*

1. vafot etgan. 2. to‘zigan, eskirgan, yeyilgan

Adv. – Adverb (ravish): **tief** *Adv.* chuqur.

Präp. – Präposition (predlog): **dank** *Präp.* G. tufayli, sababli.

Pron. – Pronomen (olmosh): **mein** *Pron.* mening, meniki.

Konj. – Konjunktion (bog‘lovchi): **und** *Konj.* va, hamda.

Otga tegishli shartli qisqartmalar quyidagi shaklda berilgan.

f; - Femininum (jenskiy rod): **Tante** *f; -; -n;* xola

m; - Maskulinum (mujskoy rod): **Verlag** *m; -es; -e;* zashriyot

n; - Neutrumb (srednyiy rod): **Land** *n; -es; -Länder;*

Ko‘p ma‘nolilik bosh so‘z tarkibidagi bir paytning o‘zida turli so‘z turkumlariga tegishli holatlarda har bir so‘z tarkibi alohida ajratib ko‘rsatilgan. Bunday holat aksariyat ravishda sifat (Adj.) va ravishga (Adv.) taalluqli.

tief *I. Adj.* 1. chuqur. 2. jiddiy, puxta, o‘tkir. 3. kech. 4. juda kuchli. 5. dardli; ~**e**

Trauer chuqur qayg‘u.

tief *II. Adv.* chuqur; ~ **graben** chuqur qazimoq.

oltin *I.* Gold *n;*

oltin *II. Adj.* **oltin medal** goldene Medaille

Otlarning ko‘plik shakli rodni ko‘rsatuvchi belgidan keyin -*e*, -*n*, (*e*)*n*, -*er*; -*s* kabi ko‘plik qo‘shimchalari orqali berilgan. Masalan:

-*e*; **Jahr** *n; -es; -e;* yil.

-*n*; **Puppe** *f; -; -n;* qo‘g‘irchoq.

-*en*; **Bank** *f; -; -en;* bank.

-*er*; **Kind** *n; -es; -er;* bola.

-*s*; **Opa** *m; -s; -s;* bobo, buva.

So‘z o‘zagidagi unlining umlautga (a – ä, o – ö, u – ü) o‘zgarishi orqali yasalgan ko‘plik shakli qisqartma emas, so‘zning butun shaklida berilgan.

a – ä: **Apfel** *m; -s; Äpfel*. olma.

o – ö: **Lohn** *m; -es; Löhne* oylik maosh.

u – ü: **Mutter** *f; -; Mütter*. ona.

Ot so‘z turkumiga tegishli bosh so‘zda uchraydigan tire (-) belgisi jenskiy rodga tegishli so‘zlarda va ko‘plik shaklida qo‘srimchalarning yo‘qligidan darak beradi. Masalan:

Panzer *m; -s; -*; tank

amaki *Onkel m; -s; -*;

Qoidalardan istisno yoki ko‘p variantli hollarda otlarning ko‘plik shakli to‘la shaklda ko‘rsatilgan. Masalan:

Stipendium *n; -s; Stipendien* stipendiya

Schema *n; -s; Schemata, Schemen sxema*.

Fe’llar *vi*; (Verbum intransitivum) va *vt*; (Verbum transitivum) shartli qisqartma-lar orqali o‘timsiz va o‘timli fe'l shakllarga bo‘linishini ko‘rsatadi. Masalan:

fahren I. 1. *vi*. bormoq, ketmoq, yurmoq (*transport vositasida*); **mit dem Auto** ~ yengil mashinada bormoq. II. *vt*. 1. olib borib qo‘ymoq, haydab olib bormoq (*odam, yuk*), qatnamoq. 2. boshqarmoq, haydamoq (*transport vositasini*).

O‘zlik fe’llar **sich** – o‘zlik olmoshi bilan ifodalangan. Masalan: **vorbereiten sich** tayyorlanmoq.

Ilm-fan, texnika, tibbiyat, iqtisodiyot, sport kabi turli ijtimoiy sohaga oid bosh so‘zlar qisqartma shaklida sohaga oid tegishli leksikografik belgililar bilan ajratib ko‘rsatilgan. Qisqartmalar lug‘atning nemischa – o‘zbekcha qismida nemis tilida, o‘zbekcha – nemischa qismida o‘zbek tilida berilgan. Masalan:

Distel *f; -; -n; Bot.* 1. lattatikan, paxtatikan. 2. bo‘ztikan. 3. qushqo‘nmas (*tikanli yovvoyi o‘simlik*).

Distelfeige *f; -; -n; Bot.* hind anjiri.

Distelfink *m; -en; -en; Zool.* sa’va.

Disteln *n; Textil.* paxmoqlash.

Gendermunosabatlар bilan bog‘liq til birliklari ushbu lug‘atda chegaralangan holatlarda aks ettirildi. Xususan, nemis tilidagi jenskiy rodga tegishli **-in** ot qo‘srimchasidan leksikografik maqsadlarda voz kechildi va otning mujskoy roddagi shakli kiritildi. Masalan, **Redner** *m; -s; -*; notiq (erkak kishi) so‘zini zarur holatda so‘z yasovchi **-in** qo‘srimchasi bilan jenskiy rodga aylantirish mumkin (**Rednerin** *f; -; -innen*). **-in** qo‘srimchasi bilan jenskiy rodga ot yasash mumkin bo‘lmagan hollarda rodga tegishli har ikki so‘z alohida berilgan. Masalan:

Beamte *m; -n; -n;* davlat xizmatchisi, amaldor, mansabli shaxs.

Beamtin *f; -; -nen; (ayolga oid)* davlat xizmatchisi, amaldor, mansabli shaxs.

beva 1. (*ayol*) Witwe *f.* 2. (*erkak*) Witwer *m; ~ qolmoq* verwitwet sein.

LISTE DER VERWENDETEN DEUTSCHEN ABKÜRZUNGEN

Qo'llanilgan nemischa qisqartmalar

| | |
|---|-----------------------------------|
| <i>Adj.</i> Adjektiv | <i>Ling.</i> Linguistik |
| <i>Adv.</i> Adverb | <i>Lit.</i> Literatur |
| <i>Akk.</i> Akkusativ | <i>m.</i> Maskulinum |
| <i>Anat.</i> Anatomie | <i>Math.</i> Mathematik |
| <i>Archäol.</i> Archäologie | <i>Med.</i> Medizin |
| <i>Astrol.</i> Astrologie | <i>Meteor.</i> Metereologie |
| <i>Astron.</i> Astronomie | <i>Milit.</i> Militärwesen |
| <i>Bankw.</i> Bankwesen | <i>Min.</i> Mineralien |
| <i>Bergb.</i> Bergbau | <i>Mus.</i> Musik |
| <i>Bio.</i> Biologie | <i>Myth.</i> Mythologie |
| <i>Bot.</i> Botanik | <i>n.</i> Neutrum |
| <i>Buch.</i> Buchhaltung | <i>Neub.</i> Neubedeutung |
| <i>Chem.</i> Chemie | <i>Neuw.</i> Neuwort |
| <i>D.</i> Dativ | <i>Num.</i> Numerale |
| <i>Dipl.</i> Diplomatie | <i>Pharm.</i> Pharmazeutik |
| <i>EDV.</i> elektronische Datenverarbeitung | <i>Part.</i> Partizip |
| <i>El.</i> Elektroenergetik | <i>Philos.</i> Philosophie |
| <i>etw.</i> etwas | <i>Phys.</i> Physik |
| <i>f.</i> Femininum | <i>Pl.</i> Plural |
| <i>Finanz.</i> Finanzwesen | <i>Polygr.</i> Polygraphie |
| <i>G.</i> Genitiv | <i>Psych.</i> Psychologie |
| <i>Geol.</i> Geologie | <i>Präp.</i> Präposition |
| <i>Geogr.</i> Geographie | <i>Pron.</i> Pronomen |
| <i>Geom.</i> Geometrie | <i>Rechtw.</i> Rechtswissenschaft |
| <i>Gramm.</i> Grammatik | <i>Rel.</i> Religion |
| <i>IT.</i> Informationstechnologien | <i>Schach.</i> Schach |
| <i>Jagd.</i> Jagdwesen | <i>Soziol.</i> Soziologie |
| <i>j-m</i> jemandem | <i>Sport.</i> Sport |
| <i>j-n</i> jemanden | <i>Syn.</i> Synonym |
| <i>Jur.</i> Jurisprudenz | <i>Tech.</i> Technik |
| <i>Kindsp.</i> Kindersprache | <i>Text.</i> Textilien |
| <i>Konj.</i> Konjunktion | <i>Theat.</i> Theater |
| <i>Kurzw.</i> Kurzwort | <i>vt.</i> Verbum transitivum |
| <i>Kulin.</i> Kulinarie | <i>vi.</i> Verbum intransitivum |
| <i>Landw.</i> Landwirtschaft | <i>Wirt.</i> Wirtschaft |
| | <i>Zool.</i> Zoologie |

QO'LLANILGAN O'ZBEKCHA QISQARTMALAR
Liste der verwendeten usbekischen Abkürzungen

| | |
|-------------------------------|-------------------------------|
| <i>Adab.</i> adabiyot | <i>Kulin.</i> kulinariya |
| <i>Anat.</i> anatomiya | <i>Ling.</i> lingvistika |
| <i>Ast.</i> astronomiya | <i>Mat.</i> matematika |
| <i>Bio.</i> biologiya | <i>Mif.</i> mifologiya |
| <i>Bot.</i> botanika | <i>Min.</i> mineral |
| <i>Din.</i> dinshunoslik | <i>Mus.</i> musiqa |
| <i>Elektr.</i> elektrotexnika | <i>Poligr.</i> poligrafiya |
| <i>Esk.</i> eskirgan | <i>Q-x.</i> qishloq xo'jaligi |
| <i>Etno.</i> etnografiya | <i>Siyos.</i> siyosat |
| <i>Fiz.</i> fizika | <i>Sport.</i> sport |
| <i>Geog.</i> geografiya | <i>Tar.</i> tarix |
| <i>Gram.</i> grammatika | <i>Teatr.</i> teatr |
| <i>Harb.</i> harbiy | <i>Tekst.</i> tekstil |
| <i>Iqt.</i> iqtisodiyot | <i>Tex.</i> texnika |
| <i>Jur.</i> yurisprudensiya | <i>Tib.</i> tibbiyot |
| <i>Kim.</i> kimyo | <i>Zool.</i> zoologiya |
| <i>Kon.</i> konchilik | <i>Shax.</i> shaxmat |

**DAS DEUTSCHE
ALPHABET**

| | |
|--------------|------------|
| A a | N n |
| B b | O o |
| C c | P p |
| D d | Q q |
| E e | R r |
| F f | S s |
| G g | T t |
| H h | U u |
| I i | V v |
| J j | W w |
| K k | X x |
| L l | Y y |
| M m | Z z |
| <hr/> | |
| Ä ä – Umlaut | |
| Ö ö – Umlaut | |
| Ü ü – Umlaut | |

**O'ZBEK
ALIFBOSI**

| | |
|------------|-----------------|
| A a | Q q |
| B b | R r |
| D d | S s |
| E e | T t |
| F f | U u |
| G g | V v |
| H h | X x |
| I i | Y y |
| J j | Z z |
| K k | O‘ o‘ |
| L l | G‘ g‘ |
| M m | Sh sh |
| N n | Ch ch |
| O o | Ng ng |
| P p | , |
| | (tutuq belgisi) |

WÖRTERBUCH

DEUTSCH – USBEKISCH

- A. a.** Der erste Buchstabe des deutschen Alphabets; **von** ~ **bis Z** hammasi, barchasi, boshidan oxirigacha.
- Aal** *m*; -*e(s)*; -*e*; *Zool.* ilonbaliq.
- Aalbaum** *m*; -(*e*)*s*; - *Bäume*; *Bot.* shilvi, uchqat (buta o'simlik).
- Aalbeere** *f*; -; -*n*; qorag'at.
- Aalbeerstrauch** *m*; -(*e*)*s*; - *Sträuche*; qorag'at butasi.
- aalen sich** quyoshda toblanmoq.
- aalähnlich** *Adj.* ilonbaliqdek.
- aalglatt** *Adj.* 1. sirpanchiq, sirlganchiq. 2. ustomon, ustasi farang.
- Aalohrenbaum** *m*; -(*e*)*s*; - *Bäume*; *Bot.* buzina, marjon daraxti (qizil mevali buta yoki daraxt va uning mevasi).
- aaltig** *Adj.* ilonbaliqsimon.
- Aar** *m*; -(*e*)*s*; -*e*; lochin, burgut.
- Aarkirsche** *f*; -; -*n*; *Bot.* chetan.
- Aas** *n*; -*es*; -*e*; *u. Äser* o'limtik, o'lgan hayvon go'shti
- aasen** *vt.* (pulni, kuchni) bekorga sourmoq, qirtishlamoq, qirtishlab terini go'shtdan tozalamoq.
- Aasgeier** *m*; -*s*; -; *Zool.* kalxat, jo'rechi, kal jo'rechi (*o'limtik bilan ovqatlana-digan yirtqich qush*).
- Aaskäfer** *Pl.* *Zool.* o'limtikxo'rlar (oilasi).
- ab** 1. *Präp.* D -dan; **ab heute** bugundan boshlab; **ab jetzt** hozirdan; **ab wann** qachondan boshlab; **ab sofort** hoziroq, hozirgi daqiqadan. 2. *Präf.* ~ **reisen** jo'nab ketmoq, yo'lga chiqmoq (*transportda*); ~**nehmen** kamaymoq, ozaymoq.
- abänderlich** *Adj.* o'zgaradigan, turlanadigan, o'zgaruvchan turlanuvchan.
- Abänderlichkeit** *f*; -; -*en*; o'zgaruvchanlik, yangilanishga moyillik.
- abändern** *vt.* o'zgartirmoq.
- Abänderung** *f*; -; -*en*; o'zgartirish.
- Abart** *f*; -; -*en*; tur, xil.
- abarbeiten** *vt.* 1. ishlab uzmoq, ishlab bermoq. 2. ishlatib holdan toydirmoq
- sich** ~ charchab ketmoq.
- abackern** *vt.* 1. yer haydamoq, shudgorlamoq. 2. yer haydashni tugatmoq, shudgorlashni tugatmoq.
- abangeln** *vt.* (j-m) ko'zidan anglamoq, ko'zidan ma'nno uqmoq.
- abästen** *vt.* butamoq (shoxlarni).
- Abbau** *m*; -(*e*)*s*; -; 1. qazib olish. 2. yig'ish, yig'ib olish. 3. buzish. 4. pasayish (*maosh, oylik*).
- abbauen** *vt.* 1. qazib olmoq (*ko'mir*). 2. yig'moq, buzmoq. 3. pasaytimoq.
- abbeißen** *vt.* tishlab olmoq.
- Abbeizmittel** *n*; -*s*; -; zahar, zaqqum, o'gu.
- abbeten** *vt.* 1. *Rel.* ibodat (tilovat) qilmоq, duo qilmoq. 2. gunohni yuvmoq.
- abbeteln** *vt.* tilanmoq, so'ranmoq (kimandir, nimanidir).
- abbekommen** *vi.* 1. o'z haqqini olmoq, o'z ulushini olmoq. 2. zo'rlab undirmoq.
- abberufen** *vt.* chaqirib olmoq, bo'shatmoq, ozod qilmoq (*lavozimdan, vazifadan*).
- Abberufung** *f*; -; -*en*; chaqirib olish, bo'shatish, ozod qilish (*lavozimdan, vazifadan*).
- Abberufungsschreiben** *n*; -*s*; -; chaqiriq qog'ozи
- abbestellen** *vt.* bekor qilmoq **die Bestellung** ~ buyurtmani bekor qilmoq.
- abbezahlen** *vt.* to'lamоq **in Raten** ~ bo'lib-bo'lib to'lamоq.
- abbiegen** 1. *vs.* burilmoq, burilib ketmoq. 2. *vt.* burmoq, burib yubormoq **ein Gespräch** – suhbatni burib yubormoq

Abbiegung – Abenddämmerung

Abbiegung *f; -; -en*; burilish, qayrilish, muyulish.

Abbild *n; -(e)s; -er*; tasvir, aks etish, ifoda.

Abbildung *f; -; -en*; surat, rasm.

abbinden *I* *vt*. 1. yechmoq. 2. *Med.* bog‘lamoq (*yarani*). *II* *vi*. *Tech.* qotmoq, qattiqlashib qolmoq.

Abbiß *m; -ses, -se*; 1. tishlam. 2. *Jagd.* xo‘rak (*qopqondagi*).

Abbitte *f; -; -n*; uzr, ma‘zur; ~ **tun (leisten)** uzr so‘ramoq; ~ **ist die beste**

Busse egilgan boshni qilich kesmas.

abbitten *vt*. kechirim so‘ramoq, uzr so‘ramoq.

abblasen *vt*. (rejani) bekor qilmoq, barbob qilmoq, voz kechmoq.

abblenden *vi*. (rangga oid) so‘nmoq, o‘chmoq.

Abblendlicht *n; -(e)s; -er*; yaqin, ko‘zni olmaydigan chiroq.

abblättern *vt*. 1. varaqlamoq. 2. (daraخting) bargini yulmoq.

abblühen *vi*. gullab bo‘lmoq.

abbrechen *I*. *vt*. sindirib olmoq, buzmox. 2. to‘xtatmoq, uzmoq (*aloqani*), bekor qilmoq *II*. *vi*. simmoq, buzilmoq. *III. sich (D.) etw.* biron narsadan o‘zini tiyomoq, o‘ziga ravo ko‘rmaslik.

abbrensen *vt*. (asta) to‘xtatmoq, tormoz bermoq.

abbrennen *vt*. yondirmoq, kuydirmoq; vi, yonib kul bo‘lmoq.

abringen *vt*. ko‘ndirmoq, chalg‘itmoq (biror narsadan), yo‘ldan toydirmoq; **j-n von seiner Meinung ~** kimnidir fikridan qaytarmoq.

abbröckeln *vi*. pasaymoq, tushmoq (*narxlar*).

Abbruch *m; -(e)s; -brüche*; 1. buzish, uzish, buzib tashlash, ko‘chirish. 2. to‘xtatish, tugatish.

abbrüchig *Adj*; mo‘rt, sinadigan.

Abbrucharbeit *f; -; -en*; buzish ishlari.

abbuchen *vt*. bekor qilmoq, qaytarib olmoq (*buyurtmani*).

abbügeln *vt*. dazmollamoq, dazmol bosmoq, dazmollab bo‘lmoq.

ABC *n; -; /a:be:tse:/* *n*; alifbo.

ABC-buch *n; -es*; *ABC-bücher*; alifbo kitobi.

ABC-Schüler *m; -s; -*; birinchi sinf o‘quvchisi.

abdämmen *vt*. to‘g‘on bilan to‘smoq (*svuni*).

abdämpfen *vt*. 1. bug‘latib qo‘ymoq. 2. bug‘lamoq, parlamoq, dimlamoq (*go‘sht, sabzavot*). 3. pasaytimoq (*ovozini*).

abdanken *vi*. iste’foga chiqmoq, lavozimdan bo‘shamoq, taxtdan voz kechmoq.

Abdankung *f; -; -en*; iste’fo, lavozimdan voz kechish.

abdecken *vt*. 1. tomni ochmoq, qopqoqni ochmoq. 2. dasturxonni yig‘ish-tirmoq. 3. (*choyshab bilan*) yopmoq.

abdrängen *vt*. siqib chiqarmoq; **j-m vom Platz ~** kimnidir o‘rnidan siqib chiqarmoq.

abdiinnen *vt*. xizmat qilib bo‘lmoq.

abdrehen *vt*. buramoq, burab yopmoq; **das Wasser ~** suvni yopmoq (to‘xtatmoq, berkitmoq).

Abdruck *m; -(e)s; -drücke*; iz, tamg‘a, belgi, nishon.

abdrücken *vt*. (*tamg‘a*) bosmoq, bosib bo‘lmoq.

Abend *m; -s; -e*; kechqurun, oqshom; **heute ~, diesen ~** bugun kechqurun, oqshomda; **Guten ~!** salom (*kechki paytda*), xayrli kech; **gegen ~** kechga yaqin; **es ist noch nicht alle Tage ~** oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yorug‘.

Abendblatt *n; -(e)s; -blätter*; (*oqshomgi*) kechki gazeta.

Abendbrot *n; -(e)s; -*; kechki ovqat; ~ **essen** kechki ovqatni yemoq.

Abenddämmerung *f; -; -en*; oqshom, kech kirgan payt, kechki g‘ira-shira payt.

A

Abendessen – abfordern

A

- Abendessen** *n; -s; -; kechki ovqat.*
- Abendkleid** *n; -(e)s; -er-; oqshom libosi (yig'in, mehmonorchilik, teatr).*
- Abendland** *n; -(e)s; -länder; g'arb, mag'rib, kunbotar mamlakatlar.*
- abendländisch** *adj. g'arbona, g'arbiy, yevropacha.*
- Abendmahl** *n; -(e)s; -e; kechki ovqat.*
- Abendmahlzeit** *f; -; -en; kechki ovqat.*
- Abendrot** *n; -s; -; kechki shafaq.*
- abends** *Adv. kechqurunlar.*
- Abenteuer** *n; -s; -; 1. sarguzasht, boshdan kechirilgan hodisa. 2. qaltis ish, mojaro.*
- abenteuerlich** *Adv. 1. sarguzashtli. 2. qaltis, xavfli.*
- aber** *Konj. ammo, lekin, biroq.*
- Aberast** *m; -es; -Äste; daraxt shoxlarining nimjon qismi.*
- abergläubisch** *Adj. irimchi.*
- Aberglaube** *m; -ns; -; irim - sirim.*
- aberkennen** *vt. mahrum qilmoq, bekor qilmoq.*
- Aberkenntung** *f; -; -en; mahrum qilish, bekor qilish.*
- aberklug** *Adj. ayyor, mug'ombir; kinoyaviy. haddan ortiq (o'ta) aqli.*
- abermalig** *Adv. takror, takroriy.*
- abermałys** *yana bir marta, yana bir bor (karra).*
- abernten** *vt. hosilni yig'ib-terib olmoq.*
- aberweise** *Adj. sinchkov, har narsani bilishga qiziquvchi, surishtiraveradigan.*
- Aberwitz** *m; -es; -; bema'nilik.*
- aberwitzig** *Adj. ma'nisiz.*
- abessen** *vt. yeb bo'lmoq, yeb tugatmoq.*
- abfackeln** *vt. yondirmoq (mash'ala).*
- abfahrbereit** *Adv. jo'nashga tayyor.*
- abfahren** *vi. jo'nab ketmoq, yo'lga tushmoq; mit dem Zug ~ poyezd bilan ketmoq (jo'namoq), poyezdda jo'namoq.*
- Abfahrt** *f; -; -en; jo'nash, jo'nab ketish.*
- Abfahrtsgleis** *n; -es; -e; jo'nash yo'li, perron.*
- Abfahrtstag** *m; -(e)s; -e; jo'nash kuni.*
- Abfall** *m; -(e)s; -fälle; chiqindi, axlat.*
- abfallen** *vi. ko'chmoq, yemirilib tushmoq.*
- abfällig** *Adj. bepisand, behurmat; ~e Antwort* bepisand javob.
- Abfallkorb** *m; -(e)s; -körbe; axlat satavi (idish).*
- Abfallprodukt** *n; -(e)s; -e; chiqindi (mahsulot).*
- abfangen** *vt. to'xtatmoq, to'xtatib qolmoq, tutib qolmoq, ushlab qolmoq.*
- abfärb'en** *vt. boshqa rangga bo'yamoq.*
- abfassen** *vt. (noma, vasiyatnoma) bitmoq.*
- abfeiern** *vt. (ortiqcha ishlangan kunuchun) dam olmoq.*
- Abfertigung** *f; -; -en; jo'nashga tayyorlash, registratsiya, ro'yxatga olish.*
- Abfertigunshalle** *f; -; -en; ro'yxatdan o'tkazish (qayd qilish) zali (aeroportda).*
- abfeuern** *vt. (quoldan) otmoq, o'q uzmoq.*
- abfinden** *vt. zararni qoplamoq.*
- Abfindung** *f; -; -en; zararni qoplash.*
- abfliegen** *vi. 1. (qushlarga oid) uchib ketmoq. 2. parvoz qilmoq.*
- abfließen** *vi. oqib tushmoq, oqib ketmoq.*
- Abflug** *m; -(e)s; -flüge; uchib ketish.*
- Abflugszeit** *f; -; -en; uchib ketish vaqt, parvoz vaqt, uchish vaqt.*
- Abfluß** *m; -es; -flusse (kuchli) oqib kirish, quylish.*
- Abfolge** *f; -; -n; ketma-ketlik, izchillik.*
- Abfrage** *f; -; -n; so'rov.*
- abfragen** *vt. (bilimini tekshirish uchun) so'ramoq.*
- abfressen** *vt. (hayvonga oid) yeb tugatmoq.*
- abfrieren** *vt. sovuqdan qotmoq, muzlab o'lmoq.*
- abfordern** *vt. talab qilmoq, talab etmoq.*

Abfuhr *f; -; -en*; 1. tashib ketish, olib ketish. 2. *Sport*. alamlı mag‘lubiyat.

abführen *vt*. 1. olib ketmoq, ergashtirib (bosqlab) olib bormoq. 2. pul o‘t-kazmoq.

Abführmittel *n; -s; -; Pharm*; ich yurishini yengillashtiradigan vosita (dori).

abfüllen *vt*. quymoq, quyib chiqmoq; quyib to‘ldirmoq.

Abgabe *f; -; -en*; 1. berish, topshirish, soñish. 2. *Sport*. (koptokni) yo‘qotish.

Abgang *m; -(e)s; -gänge*; 1. jo‘nash, ketish. 2. ~ vom Amt iste‘foga chiqish, lavozimdan ketish. 3. molni (tovar) pullash. 4. pasayish (*suv*). 5. *Med*. toshning (buyrakdan) ajralib chiqishi.

Abgangsklasse *f; -; -n; -bitiruvchi sinf.*

Abgangszeugnis *n; -ses; -se*; bitirish shahodatnomasi.

Abgas *m; -es; -e*; ishlatalgan gaz, chiqindi gaz.

abgeben 1. *vt*. bermoq, qaytarib bermoq, topshirmoq. 2. ~ **sich** shug‘ulanganmoq.

abgebrannt *Adj*. 1. yongan, kuygan. 2. bud-shudidan ayrilgan, hech vaqosiz qolgan.

abgebraucht *Adv*. tutilgan, ishlatalgan, oxori to‘kilgan.

abgedroschen *Adj*. siyqasi chiqqan.

abgefahren I. Part. II jo‘nab ketgan.

II. Part. II Adj. 1. vafot etgan. 2. to‘zigan, eskirgan, yeyilgan

abgegriffen *Part. Adj*. rangi o‘chgan, tililgan, kiyilaverib juldurvoqiga aylangan.

abgehen *vi*. 1. ajralib ketmoq. 2. jo‘-nab ketmoq.

abgekämpft *Adj*. kurashib-kurashib charchagan, holdan toygan.

abgekartet *Adj*. pinhona kelishilgan, shartlashilgan.

abgeklärt *Adj*. aniq, ravshan, tiniq.

abgekürzt *Adj*. qisqartirilgan.

abgelegen *Adj*. uzoq, ajratilgan, yakka holdagi, chekka.

abgelten *vt*. 1. qarzni to‘lamoq. 2. to‘g‘rilamoq.

abgemacht *Adj*. hal etilgan, nihoyasi ga yetkazilgan; ~! Kelishidik!

abgemessen *Adj*. 1. o‘lchangان, o‘l-chog‘liq. 2. mos, loyiq.

abgeneigt *Adj*. 1. xohishsiz, istamay, xohlamay. 2. moslashmagan, yaxshilik qilishga o‘rganmagan.

Abgeordnete *m; -n; -n; -deputat, noib.*

Abgeordnetenhaus *n; -es; -häuser; parlament, deputatlar palatası.*

abgerissen *Adj*. yirtilgan, to‘zigan (kiyim).

Abgesandte *m; -n; -n; vakil, chopar, elchi.*

Abgesang *m; -(e)s; Abgesänge*, 1. yakan. 2. she‘riy asar.

abgeschabt *Adj*. tirnalgan, titilgan.

abgespannt *Adj*. charchagan, holdan toygan.

Abgeschiedenheit *f; -; -en; yolg‘izlik, tanholik.*

abgeschlossen *Adj*. 1. tugallangan; **eine ~e Bildung** tugallangan ta‘lim; **ein ~es Werk** tugallangan asar. 2. alohida, bo‘lingan; **eine ~e Wohnung** ajratilgan, alohida xona.

abgeschieden *Adj*. yolg‘iz, tanho.

abgeschlagen *Adj*. 1. singan, lat yegan, zarar yetgan. 2. *Sport*. g‘olib bo‘lgan.

abgeschmackt *Adj*. didsiz, andishasiz.

abgesehen ~ davon -ga qaramasdan, -dan tashqari.

abgetan *Adj*. e‘tibor berilmagan, e‘ti-borsiz qaralgan.

abgießen *vt*. sug‘ormoq, suv quymoq.

Abglanz *m; -es; -; shu’la, aks etish, yaltirash.*

abgleiten *vi*. sirg‘anmoq, sirg‘anib ketmoq.

Abgott *m; -es; -götter*; pir, avliyo, sajda qilinadigan shaxs.

abgöttisch – Abklatsch

A

- abgöttisch** *Adj.* o‘ta e’zozlanish darajasida, ehtirom qilish darajasida.
- Abgötterei** *f;* -; -; sanamlarga sajda qilish, sig‘inish.
- abgrenzen** *vt.* chegaralamoq, chegaralab olmoq.
- Abgrund** *m;* -(e)s; -gründe; 1. jar, tika jar. 2. tubanlik, pastqamlik.
- abgrundtief** *Adj.* o‘ta chuqur, tagsiz, tubsiz.
- abgrundhäßlich** *Adj.* o‘ta xunuk, turqi sovuq.
- aerostatisch** *Adj.* Aerostatik.
- aerodynamisch** ~ *Adj.* aerodinamik.
- Abguß** *m;* -es; -gütse; 1. quyma. 2. suv oquvchi moslama.
- abhalten** *vt.* 1. biron narsani to‘xtatmoq, oldini olmoq. 2. tadbir o‘tkazmoq.
- Abhang** *m;* -(e)s; -hänge; qiyalik, yonbag‘ir.
- abhacken** *vt.* chopib tashlamoq, qirqib tashlamoq.
- Abhandlung** *f;* -; -en; yozma bayon, insho, maqola.
- Abhang** *m;* -(e); -s; -hänge qiyalik.
- abhängen** *vi.* *vt.* 1. bog‘liq bo‘lmoq. 2. (tirkamani) uzmoq. 3. *Neuw.* vaqtini (do‘stlar davrasida) ko‘ngilli o‘tkazmoq
- abhängig** *Adj.* bog‘liq; ~ **sein** bog‘liq bo‘lmoq.
- Abhängigkeit** *f;* -; -en; bog‘liqlik; **in** ~ **geraten** bog‘liq bo‘lib qolmoq, tobelikka tushmoq.
- Abgrenzung** *f;* -; -en; chegaralash, chegara qo‘yish.
- abharzen** *vt.* olmoq (ignabargli daraxtlarning yelimini).
- Abharzung** *f;* -; -en; tilib qo‘yish, (shirasini olish uchun daraxt po‘stlog‘imi tilib qo‘yish).
- abhauen** 1. *vt.* kesmoq, yormoq. 2. *vi.* jo‘nab qolmoq.
- abhäuten** *vt.* terisini shilmoq, po‘stini archmoq.
- abheben** 1. *vt.* yuqoriga ko‘tarmoq. 2. **sich** ~ ko‘tarilmoq; **sich in die Luft erheben** yuqoriga, samoga ko‘tarilmoq. 3. *Finanz.* pulni yechib olmoq.
- abheften** *vt.* muqovalamoq, jiddlamoq.
- abheilen** *vt.* to‘liq davolamoq; **die Wunde ist gut abgeheilt** jarohat bitib ketdi.
- Abhilfe** *f;* -; -; (favqulodda) yordam ko‘rsatish.
- abhold** *Adj.* j-m ~ **sein** kimmidir yoqtirmaslik, jini suymaslik.
- abholen** *vt.* (kimmidir) kutib olmoq, olib kelmoq.
- abholzen** *vt.* kesmoq, yiqitmoq (*draxtni*).
- abhören** *vt.* tinglamoq, o‘quvchilardan vazifani so‘ramoq.
- Abhörgerät** *n;* -(e)s; -e; eshitkich (moslamasi).
- abhungern** *vt.* ochlik orqali ozmoq.
- Abituren** *n;* -s; -e; bitirish imtihoni; **das (sein)** ~ **machen** bitirish imtihoni topshirmoq.
- Abiturient** *m;* -en; -en; abituriyent, o‘rta maktab bitiruvchisi.
- Abiturientenball** *m;* -(e)s; -bälle; bitiruv oqshomi, bitiruv bali.
- Abiturzeugnis** *n;* -sses; -se; bitiruv guvohnomasи.
- abjagen** *vt.* o‘ndirmoq; **jmdm etwas ~ mit Mühe von ihm erhalten** kimdandir qiyinchilik bilan biror narsani olmoq.
- abkanzeln** *vt.* so‘kmoq, dashnom beromoq.
- abkacken** *vi.* *Neuw.* (biron ishni bajarishda) muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘lmoq
- Abkehr** *f;* -; -; qaytish, voz kechish.
- abkehren** 1. *vt.* qaytarmoq (*yo‘ldan*). 2. **sich** ~ birovdan ixlosi qaytmoq.
- abklären** *vt.* 1. aniqlamoq, oydinlashtirmoq. 2. tindirmoq, tiniqlashtirmoq.
- Abklatsch** *m;* -(e)s; -e; soxta nusxa.

abklatschen *vt.* *Neuw.* (ma'qullab) qo'l tashlamoq

abklingen *vi.* pasaymoq (*ovoz*), ari-moq (*kasallik*).

Abkommen *n;* *-s;* *-;* shartnoma, bitim; **ein langfristiges** ~ uzoq muddatli shartnoma (bitim); **ein ~ abschließen (treffen)** bitim (shartnoma) tuzmoq.

abkommen *vi.* 1. yo'ldan adashmoq. 2. mavzudan chalg'immoq.

Abkömmling *m;* *-s;* *-e;* avlod, nasl, urug'.

abkommendieren *vt.* *Milit.* xizmat safariga yubormoq.

abkühlen *vt.* sovitmoq, muzlatmoq.

Abkühlung *f;* *-;* *-en;* sovish, muzlash, muzlatish.

abkündigen *vt.* 1. bo'shatmoq. 2. bekor qilmoq. 3. e'lon qilmoq.

Abkündigung *f;* *-;* *-en;* 1. bo'shatish. 2. bekor qilish. 3. e'lon, xabar.

abkürzen *vt.* qisqartirmoq.

Abkürzung *f;* *-;* *-en;* 1. qisqartirish. 2. Ling. qisqartma, abbreviatura.

abladen *vt.* yuk tushirmoq, bo'shatmoq.

Abladeplatz *m;-es;* *-plätze;* (axlat, yuk) tushirish joyi.

Ablage *f;* *-;* *-en;* 1. joy, o'rin. 2. tarribga solish (hujjatlarni). 3. binoning old qismi.

ablagern 1. *vt.* yig'moq, jamlamoq. 2. *vt.* saqlamoq (*omborda*). 3. qiyomiga yetmoq.

ablassen *vt.* 1. toshirmoq. 2. voz kechmoq (*rejadan*).

Ablauf *m;* *(-e)s:-läufe;* 1. (ishning, ja-rayonning) borishi, rivojlanib ketishi. 2. muddatning tugashi.

ablaufen *vi.* 1. uzoqlashmoq. 2. oqib ketmoq. 3. *Tech.* ishdan chiqmoq. 4. bo'lib o'tmoq.

Ablaut *m;* *(-e)s;* *-e;* *Gram;* ablaut (*o'zakdag'i unlilarning almashinuvি.*).

Ablativ *m;* *(e)s;* *-e,* *Gram;* o'rin-payt kelishigi.

Ableben *n;* *-s;* olamdan o'tish, vafot etish, qazo qilish.

ableben *vt.* olamdan o'tmoq qazo qilmoq.

ablegen *vt.* 1. topshirmoq; **den Mantel** ~ paltoni (garderobga, yechinish bo'lmasiga) topshirmoq; **eine Prüfung** ~ imtihon topshirmoq. 2. qo'yimoq (*chetga*).

ablehnen *vt.* rad qilmoq, qaytarmoq; **einen Vorschlag** ~ taklifni qaytarimoq.

Ablehnung *f;* *-;* *-en;* rad qilish, qaytarish.

ableisten *vt.* to'la bajarmoq, ado etmoq; **seine Wehrpflicht** ~ o'z harbiy burchini bajarmoq.

ableiten *vt.* yo'llamoq, boshqarmoq; ~ **in eine andere Richtung leiten** boshqa yo'nalishga burmoq.

Ableitung *f;* *-;* *-en;* 1. boshqa yo'nalishga burish. 2. *Gram.* qo'shimchalar yordamida so'z yasash.

ablenken *vt.* e'tiborni chalg'itmoq.

Ablenkung *f;* *-;* *-en;* e'tiborni chalg'i-tish.

Ablenkungsmanöver *n;* *-s;* *-;* chalg'itish harakati (manyovri).

ablesen *vt.* 1. *ovoz* chiqarib o'qimoq. 2. o'lchab aniqlamoq. 3. (yuzidan) o'qimoq, anglamoq.

ableugnen *vt.* tonmoq, inkor etmoq.

abliefern *vt.* yetkazib bermoq, eltib bermoq.

Ablieferung *f;* *-;* *-en;* yetkazib berish, eltib berish.

ablöschen *vt.* 1. o'chirib tashlamoq. 2. puflab o'chirmoq.

ablösen *vt.* 1. ajratib olmoq. 2. o'rmini egallamoq.

abmachen *vt.* 1. ajratmoq. 2. kelishmoq.

Abmachung *f;* *-;* *-en;* kelishuv; **beiderseitige** ~ ikkitomonlama keli-shuv.

abmagern *vi.* ozmoq, oriqlamoq (*hay-vonlarga oid*).